

INDIVID, SHAXS VA INDIVIDUALLIK TUSHUNCHALARI

Tursunova Farida Bekzod qizi

*O‘zMPU “Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Pardayeva Umida Muxtor qizi Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologiya fanining muhim tushunchalari bo‘lgan individ, shaxs va individuallik tushunchalarining mazmuni, ularning o‘zaro farqi hamda inson rivojlanishidagi o‘rni yoritib berilgan. Shuningdek, bu tushunchalarning psixologik va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Individ, shaxs, individuallik, psixologiya, shaxs rivoji, jamiyat, tarbiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются понятия индивид, личность и индивидуальность, их сущность, различия и роль в развитии человека. Также анализируется психологическое и социальное значение данных понятий.

Ключевые слова: Индивид, личность, индивидуальность, психология, развитие личности, общество, воспитание.

Annotation: This article analyzes the psychological concepts of individual, personality, and individuality, their meanings, differences and roles in human development. The importance of these concepts in psychology and social life is also discussed.

Keywords: Individual, personality, individuality, psychology, personal development, society, education.

Bugungi kunda psixologiya fani inson ruhiyati, xulq-atvori va shaxs sifatida shakllanish jarayonlarini chuqur o‘rganadigan muhim fanlardan biri hisoblanadi. Insonni har tomonlama tahlil qilishda “individ”, “shaxs” va “individuallik” kabi asosiy tushunchalar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bu tushunchalar orqali insonning biologic tabiati, ijtimoiy munosabatlari hamda psixologik o‘ziga xos xususiyatlari yoritib beriladi.

Individ, shaxs va individuallik tushunchalari ko‘pincha kundalik hayotda bir-biriga yaqin ma’noda qo‘llanilsa-da, psixologik nuqtayi nazardan ular mazmunan bir-biridan farq qiladi. Inson tug‘ilgan paytidan boshlab individ hisoblanadi, biroq shaxs sifatida u jamiyat ta’siri ostida tarbiya, ta’lim, mehnat va muloqot jarayonida shakllanadi. Har bir shaxs esa o‘ziga xos individuallikka ega bo‘lib, bu uni boshqalardan farqlab turadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi individ, shaxs va individuallik tushunchalarining mohiyatini ochib berish, ularning o‘zaro farqi va bog‘liqligini ilmiy asosda yoritishdan iborat. Shuningdek, ushbu tushunchalarning inson kamoloti tarbiya jarayoni va jamiyat

hayotidagi o'zni ham tahlil qilinadi. Ushbu mavzu bugungi yoshlarni komil inson etib tarbiyalashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Psixologiya fanida individ tushunchasi insonning biologik mavjud sifatidagi holatini ifodalaydi. Ya'ni har bir inson tug'ilgan paytidan boshlab individ hisoblanadi. Individ tushunchasi insonning tabiiy, anatomik-fiziologik tuzilishini, irsiy belgilari, nerv tizimi, temperamentning biologik asosi hamda tug'ma ehtiyojlarini o'z ichiga oladi.

Individ sifatida inson quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

Tana tuzilishi (bo'y, vazn, tashqi ko'rinish)

Nerv tizimining tipi

Sezgi va idrok organlari

Tug'ma refleks va instinktlar

Biologik ehtiyojlar (ovqatlanish, uxlash, himoyalash)

Shuni ta'kidlash kerak-ki, individ tushunchasi ijtimoiy omillarni emas, balki insonning tabiiy-biologik tomonini ifodalaydi. Masalan, yangi tug'ilgan chaqaloq hali jamiyat bilan faol aloqaga kirishmagan bo'lsa ham, u to'laqonli individ hisoblanadi.

Psixologiyada individ tushunchasi inson rivojlanishining boshlang'ich bosqichi sifatida qaraladi. Chunki inson shaxs sifatida shakllanishi uchun avvalo individ sifatida mavjud bo'lishi shart. Demak, individ-shaxs rivojlanishining biologik poydevori hisoblanadi.

Shaxs- bu insonning jamiyat bilan o'zaro munosabatlari jarayonida shakllanadigan ijtimoiy, ongli va faol mavjudot sifatidagi holatdir. Inson shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki u ijtimoiy muhit, tarbiya, ta'lim, muloqot va mehnat faoliyati jarayonida shaxs sifatida rivojlanadi.

Shaxs tushunchasi quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:

Ong va tafakkurga ega bo'lish

Ijtimoiy mas'uliyatni his etish

Axloqiy me'yorlarga amal qilish

Maqsad qo'ya bilish va unga intilish

Jamiyatda muayyan mavqega ega bo'lish

Shaxs jamiyatdan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi. Chunki insonning nutqi, tafakkuri, dunyoqarashi, xulq-atvori aynan ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Agar inson ijtimoiy muhitdan uzoqlashsa, u to'laqonli shaxs bo'lib rivojlana olmaydi. Shaxsning shakllanishida ayniqsa oila muhiti, ta'lim muassasalari, do'st davrasi, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar katta rol o'ynaydi. Inson aynan shu muhitlar orqali hayotiy tajriba orttiradi, qadriyatlarni o'zlashtiradi va jamiyatga moslashadi.

Individuallik- bu har bir insonning boshqalardan farq qiluvchi, takrorlanmas psixologik va shaxsiy xususiyatlari majmuidir. Har bir shaxs o'z individualligiga ega bo'lib, u

insonning ichki dunyosi, xarakteri, temperamenti, qobiliyati va dunyoqarashida namoyon bo'ladi.

Individuallik quyidagi jihatlar orqali namoyon bo'ladi:

Xarakter (insonning xulq-atvor uslubi)

Temperament (asab tizimi tezligi, hissiyot)

Qobiliyat va iste'dod

Qiziqish va mayllar

Fikrlash uslubi va nutq madaniyati

Masalan, bir xil sharoitda tarbiyalangan ikki kishi ham bir-biridan xarakteri, fikrlashi yoki qiziqishlari jihatdan farq qiladi. Aynan shu farqlar ularning individualligini belgilab beradi.

Individuallik inson shaxsining betakrorligidir. Har bir inson o'ziga xos qobiliyatiga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotiga turli yo'llar bilan hissa qo'shishi mumkin. Shu sababli ta'lim jarayonida har bir o'quvchining individualligini hisobga olish juda muhim hisoblanadi.

Individ, shaxs va individuallik tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular inson rivojlanishining ketma-ket bosqichlarini ifodalaydi. Inson avval individ sifatida dunyoga keladi. Ijtimoiy muhit ta'sirida shaxs bo'lib shakllanadi. Rivojlanish jarayonida esa o'ziga xos individuallik kasb etadi. Ya'ni individ-biologik asos, shaxs- ijtimoiy sifat, individuallik-psixologik betakrorlikdir.

Xulosa qilib aytganda, individ, shaxs va individuallik tushunchalari psixologiya fanida insonni har tomonlama o'rganish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Individ insonning biologik mohiyatini, ya'ni tirik mavjudot sifatidagi tabiiy jihatlarini ifodalasa, shaxs uning jamiyatdagi mavqeini, mas'uliyatini va axloqiy fazilatlarini aks ettiradi. Individuallik esa insonning takrorlanmas psixologik xususiyatlarini, temperamentini, xarakterini, qobiliyatini va iqtidorini o'zida mujassamlashtiradi.

Inson avvalo individ sifatida dunyoga keladi, keyinchalik ijtimoiy hayot, tarbiya va ta'lim ta'sirida shaxs qilib shakllanadi, rivojlanish jarayonida esa o'ziga xos individuallikka ega bo'lib boradi. Ushbu uch tushuncha bir-birini to'ldiradi va inson shaxsining to'laqonli kamol topishiga xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim-tarbiya jarayonida har bir o'quvchi yoki talabaning individualligini hisobga olish, undagi ijobiy fazilatlarni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Zero jamiyat taraqqiyoti ham yetuk shaxslar orqali ta'minlanadi. Har bir inson o'z individualligini anglab, jamiyat oldidagi mas'uliyatini chuqur his etgan taqdirdagina barkamol shaxs bo'lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. -Toshkent 2010
2. Davletshin M. Psixologiya- Toshkent, 2012
3. Karimova V. Shaxs psixologiyasi. -Moskva 2003
4. Nemov R.S. Psixologiya- Moskva 2003
5. Internet manbalari: ziyonet.uz, lex.uz